

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

XUDAYNAZAROV SHERZOD ISMOILOVICH

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI MOLIYALASHTIRISH
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2026-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Xudaynazarov Sherzod Ismoilovich.

Tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini
takomillashtirish.....3

Худайназаров Шерзод Исмоилович.

Совершенствование практики финансирования экспорта субъектов
предпринимательства.....29

Xudaynazarov Sherzod Ismoilovich.

Improvement of the practice of export financing of business
entities.....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....62

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

XUDAYNAZAROV SHERZOD ISMOILOVICH

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI MOLIYALASHTIRISH
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2026-yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt 2221 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (termizdu@umail.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Bobakulov Tulkin Ibodullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor


Rasmiy opponentlar: Ikromi Fazliddin Nuriddin
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xolmamatov Farxodjon Kubayevich.
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.12.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil " 7 " 05 soat 9⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (376 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-4-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " 21 " 04 kuni tarqatildi.
(2026-yil " 21 " 04 daqi 3 raqamli reyestr bayonnomasi)



A.H. Toshqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.T. To'lakov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

S. J. Gadoyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish tashqi savdo hajmini kengaytirish, tovar va xizmatlar eksport tarkibini diversifikatsiya qilish hamda kichik va oʻrta biznesni global qiymat zanjirlariga chuqurroq integratsiyalashuvini taʼminlovchi muhim moliyaviy mexanizm sifatida namoyon boʻladi. Eksportni moliyalashtirish vositalari (eksport kreditlari, eksportni sugʻurtalash, kafolatlar, faktoring va boshqalar) tranzaksion xarajatlar, valyuta va toʻlov risklarini pasaytirib, likvidlik cheklovlarini yumshatadi va natijada yuqori qoʻshimcha qiymatli bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, “Yaponiyaning Bank of Tokyo-Mitsubishi banki tomonidan kompaniyalarning eksportini moliyalashtirish uchun berilgan kreditlardan olingan foizli daromadlarning miqdori 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori surʼatda, yaʼni 30,7 foizga oshgan. AQSHning Bank of America bankida eksport bilan bogʻliq boʻlgan spot, fyuchers va forvard bitimlarining hajmi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 15,2 foizga oshgan”¹. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishning iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy tadqiq etish, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun barqaror oʻsish va tashqi raqobatbardoshlikni taʼminlash nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq va dolzarb hisoblanadi.

Jahonda tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish masalalari boʻyicha xalqaro darajada keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, ularda ayniqsa kichik va oʻrta biznes uchun savdo moliyasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyalashtirishdagi “boʻshliq”ni qisqartirish hamda eksport tranzaksiyalari xavflarini kamaytirish masalalari markaziy oʻrinni egallamoqda. Mazkur muammo boʻyicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlari sifatida eksport kreditlarini sugʻurtalash va kafolatlash mexanizmlarini takomillashtirish, bank va bankdan tashqari savdo moliyasi instrumentlaridan (forfeiting, faktoring, lizing va h.k.) samarali foydalanish modellarini ishlab chiqish, eksportchi korxonalarining kredit salohiyatini baholashning riskga asoslangan uslublarini joriy etish, davlat tomonidan eksportni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmalari va institutlarining institutsional modellarini toʻgʻrillash hamda raqamli platformalar orqali eksport moliyasini raqamlashtirish yoʻnalishlarini sanab oʻtish mumkin.

Oʻzbekistonda tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish doirasida Eksportni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi, tijorat banklari huzuridagi eksport kreditlash liniyalari, sugʻurta va kafillik mexanizmlarini kengaytirish, shuningdek, foiz xarajatlarini qoplash va eksport oldi mablagʻlashni ragʻbatlantirish kabi vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Eksport qiluvchi korxonalar uchun soliq va bojxona imtiyozlari, logistik infratuzilmani yaxshilash, xorijiy bozorlar toʻgʻrisida axborot-maslahat xizmatlarini kengaytirish orqali ularning tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishga alohida eʼtibor

¹ Bank of America Annual reports. 2022-2023 // <https://www.bankofamerica>; Bank of Tokyo-Mitsubishi. Consolidated summary income statement. Annual Reports. 2018-2024 // bk.mufg.jp/globa.

qaratilmoqda. Xususan, Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadida eksportchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish kabi muhim chora-tadbirlar belgilangan. Shu bois ushbu yo‘nalishda belgilangan vazifalar ijrosini samarali ta‘minlashda tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini chuqur ilmiy tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5177-son “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 27-oktyabrdagi PQ-5268-son “Tadbirkorlik subyektlarining xorijiy valyutadagi kredit majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq yukini kamaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadbirkorlik subyektlarining eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish masalasi xorijlik iqtisodchi olimlar – L.Asabayeva, V.Gavrilenko, A.Gavrilov, A.Gloriozov, D.Mixaylov, D.Klark, B.Fedorov, A.Malsev, N.Borisyuk, Pritkov L.Shaldayeva, S.Shutova, N.Xmelevskaya, P.Koflin, P.Kartrayt, Y.Kunio, J.Munch, G.Shaur, J.Bizebruk, J.Konings, Ch.Martinkus va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan².

² Асабаева Л. С. Привлечение экспортных кредитов коммерческими банками Казахстана (стратегия, механизм, потенциал): автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Алматы, 2011. – С. 21.; Гавриленко В. Г. Экономика: энцикл. словарь. – Минск : Право и экономика, 2009. – 716 с.; Гаврилов А.А. Совершенствование механизма финансирования экспорта в России//Национальные интересы: приоритеты и безопасность. – Москва, 2011. – С. 39-48.; Глориезов А.Г., Михайлов Д.М. Внешнеторговое финансирование и гарантийный бизнес. – М.: Юрайт, 2011. – С. 207-208.; Кларк Д. Международная торговля и финансы : толковый словарь / под общ. ред. Д. Кларка. – СПб. : КАРО ; London : Lessons Professional Publishing, 2006. – 272 с.; Федоров Б. Г. Новый англо-русский банковский и экономический словарь / под общ. ред. Б. Г. Федорова. – СПб.: Лимбус Пресс, 2006. – 848 с.;

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayeva, I.Alimardonov, F.Axmedov, Z.Berdinazarov, D.Murodova, I.Narmamatov, E.Shodmonov va boshqalarning ilmiy ishlarida eksportni moliyalashtirish masalasining alohida olingan nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilgan³.

Biroq, o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish masalasi mustaqil dissertatsion tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishning nazariy asoslarini tadqiq qilish va ularning amaliy ahamiyatiga baho berish;

tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirishning innovatsion shakllarini qiyosiy tahlil qilish;

tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish borasidagi ilg‘or xorij tajribasini tahlil qilish va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslab berish;

tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirishning me‘yoriy-huquqiy asoslariga baho berish;

Экономика: толковый словарь: англо-русский. – М. : ИНФРА-М ; Весь мир, 2000. – 840 с.; Мальцев А.А. Внешнеэкономические отношения: компромисс интересов или «вогчина» территорий // Внешняя торговля. – 1998. – №7-9. – С. 38-41.; Борисюк Н.К. Развитие экспортного потенциала региона с целью его интеграции в мировое сообщество / Н.К. Борисюк, Р.М. Прытков//Взаимодействие реального и финансового секторов в трансформационной экономике. Материалы Международной научной конференции. – Оренбург: ИПК ГОУ ОГУ, 2008. – С. 525-528.; Прытков Р.М., Немирова Г.И. Формирование и развитие экспортного потенциала региона // Вестник ОГУ. – 2011. – №13 (132). – С. 388.; Шалдаева Л.И., Шутова С.В. Экспортное финансирование в мировой практике: формы, преимущества недостатки//Сельскохозяйственный журнал. – Ставрополь, 2014. - №7.; Хмелевская Н.Г. Чрезвычайные кредитные линии МВФ в системе предотвращения международных финансовых кризисов//Вестник Финансовой академии. – Москва, 2002. - №2. – С. 103-112.; Coughlin C., Cartwright P. 1987. An Examination of State Foreign Export Promotion and Manufacturing Exports. Journal of Regional Science. 27(3). P. 439–449.; Kunio Y. 1982. Sogo Shosha: The Vanguard of the Japanese Economy. New York: Oxford University Press. 358 p. Munch J., Schaur G. 2018. The Effect of Export Promotion on Firm-Level Performance. American Economic Journal: Economic Policy. 10(1). 357–387.; Van Biesebroeck J., Konings J., Martincus Ch.V. 2016. Did export promotion help firms weather the crisis? Economic Policy. 31(88). P. 653–702.

³ Abdullayeva Sh.Z. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. –Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2005.–588 b.; Alimardonov I.M. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 29.; Axmedov F.X. O‘zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga xizmat ko‘rsatishini takomillashtirish. I.f.f.d. diss. avtoref. – B. 19.; Berdinazarov Z.U. O‘zbekiston Respublikasi valyuta siyosati metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – B. 22.; Murodova D.Ch. Qishloq xo‘jaligii ishlab chiqaruvchilarini mikromoliyalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. I.f.b.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. – Toshkent, 2019. – B. 92-93.; Narmamatov I.B. O‘zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari. I.f.f.d. diss. avtoref. Toshkent, 2022. – B. 20.; Shodmonov E.Sh. O‘zbekistonda agrar islohotlarni chuqurlashtirishda banklar faolligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari. Iqt. f.n. ilm. darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2005. – 22 b.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotining zamonaviy holatini tahlil qilish va mavjud tendensiyalarni aniqlash;

tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir darajalariga baho berish;

tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni aniqlash;

tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyoti tanlangan.

Tadqiqotning predmetini tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida induksiya va deduksiya, ekspert baholash, statistik guruhlash usullari hamda moliyaviy tahlilning tarkibiy, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining eksport operatsiyalari bo'yicha ochilgan qoplanmagan akkreditivlarning jami akkreditivlar hajmidagi salmog'i hamda muddatli tratalarga qarshi ochilgan akkreditivlar hajmini oshirish yo'li bilan eksportyorlarning import to'lovlari bo'yicha ochiladigan hujjatlashtirilgan akkreditivlar hajmini oshirish asoslangan;

chaqirib olinmaydigan va qoplanmaydigan akkreditivlardan foydalanish ko'lamini kengaytirish, sof inkasso va hujjatli inkasso shakllaridan bir vaqtda foydalanishni yo'lga qo'yish, banklarning orderli cheklarini mamlakat banklarining to'lov amaliyotiga joriy qilish orqali tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirishning uzluksizligini ta'minlash asoslangan;

eksport operatsiyalari geografik jihatdan diversifikatsiya qilingan eksportchi korxonalariga tovarlarning sifati yuzasidan bank kafolatlari berish ko'lamini kengaytirish, eksportchi korxonalarining to'lov majburiyatlari yuzasidan beriladigan bank kafolatlari hajmini oshirish uchun umumiy pul oqimi barqaror bo'lgan eksportchi korxonalar guruhini shakllantirish taklif qilingan;

sof foizli spred va sof foizli marjaning me'yoriy darajasini (NIM=4,5%; NIS=1,25%) ta'minlash hisobidan yuridik shaxslarga xorijiy valyutalarda beriladigan kreditlarning foiz stavkalarini pasaytirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarning amaliy ahamiyatiga baho berilgan;

tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirishning innovatsion shakllari bo'lgan xalqaro faktoring va xalqaro forfeytingdan foydalanish ko'lamini kengaytirish uchun bir vaqtning o'zida tovar hujjatlari va tratalarni regress huquqi bilan va regress huquqsiz sotib olishni yo'lga qo'yish;

eksport qilingan mahsulotlar uchun olingan tratalarni regress huquqsiz sotib olishni yo'lga qo'yish orqali xalqaro forfeyting kreditlarini mamlakat banklari amaliyotiga joriy qilish, rezident korxonalar tomonidan yozilgan tratalarni rezident

banklar tomonidan akseptlash orqali xalqaro faktoring va forfeyting operatsiyalarining hajmini oshirishga erishish taklif qilingan;

xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish yo‘li bilan tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirishning uzluksizligini ta‘minlash uchun, chaqirib olinmaydigan va qoplanmaydigan akkreditivlardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish hamda inkassoning har ikkala shaklidan (sof inkasso va hujjatli inkasso) bir vaqtda foydalanishni yo‘lga qo‘yish zarur;

banklarning orderli cheklarini mamlakat banklarining to‘lov amaliyotiga joriy qilish tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsion tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarning tadqiqiga, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish natijalariga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining statistik ma‘lumotlarining tahlillariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ulardan mamlakat eksportini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularni mamlakat tadbirkorlik subyektlarining eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda qo‘llashning mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining eksport operatsiyalari bo‘yicha ochilgan qoplanmagan akkreditivlarning jami akkreditivlar hajmidagi salmog‘i hamda muddatli tratalarga qarshi ochilgan akkreditivlar hajmini oshirish yo‘li bilan eksportyorlarning import to‘lovlari bo‘yicha ochiladigan hujjatlashtirilgan akkreditivlar hajmini oshirish taklifi Asia Alliance Bank amaliyotiga joriy qilingan (“Asia alliance bank”ning 2025-yil 21-yanvardagi ASH-12/67-sonli bayonnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida “Asia Alliance Bank”ning majburiyatlari hajmida barqaror passivlarning salmog‘i 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 1,2 foizli punktga oshgan;

chaqirib olinmaydigan va qoplanmaydigan akkreditivlardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, sof inkasso va hujjatli inkasso shakllaridan bir vaqtda foydalanishni yo‘lga qo‘yish, banklarning orderli cheklarini mamlakat banklarining to‘lov amaliyotiga joriy qilish orqali tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirishning uzluksizligini ta‘minlash taklifi Asia Alliance Bank amaliyotiga joriy qilingan (“Asia Alliance Bank”ning 2025-yil 21-yanvardagi ASH-12/67-sonli bayonnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida “Asia Alliance Bank” tomonidan eksportyorlarning import to‘lovlari bo‘yicha ochiladigan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning hajmi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 60,1 foizga oshgan;

eksport operatsiyalari geografik jihatdan diversifikatsiya qilingan eksportchi korxonalariga tovarlarning sifati yuzasidan bank kafolatlari berish ko'lamini kengaytirish, eksportchi korxonalarining to'lov majburiyatlari yuzasidan beriladigan bank kafolatlari hajmini oshirish uchun umumiy pul oqimi barqaror bo'lgan eksportchi korxonalar guruhini shakllantirish taklifi Asia Alliance Bank amaliyotiga joriy qilingan ("Asia Alliance Bank"ning 2025-yil 21-yanvardagi ASH-12/67-sonli bayonnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida "Asia Alliance Bank" tomonidan mijozlarning majburiyatlari bo'yicha berilgan kafolatlarning miqdori 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 2,9 foizga oshgan;

sof foizli spread va sof foizli marjaning me'yoriy darajasini (NIM=4,5%; NIS=1,25%) ta'minlash hisobidan yuridik shaxslarga xorijiy valyutalarda beriladigan kreditlarning foiz stavkalarini pasaytirish taklifi Asia Alliance Bank amaliyotiga joriy qilingan ("Asia Alliance Bank"ning 2025-yil 21-yanvardagi ASH-12/67-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida "Asia Alliance Bank" tomonidan yuridik shaxslarga xorijiy valyutalarda beriladigan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 1,8 foizli punktga pasaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan 4 ta respublika va 4 xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza shaklida bayon qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkiban kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 123 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Eksportni moliyalashtirish amaliyotining nazariy asoslari va xorij tajribasi**" deb nomlangan birinchi bobida eksportni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar tadqiq qilingan, eksportni moliyalashtirish mexanizmlarining mohiyati ochib berilgan hamda tadbirkorlik subyektlari eksportni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish borasidagi ilg'or xorij tajribasi tahlil qilingan va uning amaliy ahamiyatiga baho berilgan.

L.Shaldayeva va S.Shutovanning xulosasidan kelib chiqib, eksportni moliyalashtirishning quyidagi besh shakli mavjud: eksport qiluvchilarni davlat

moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari doirasida milliy eksportchilar banklari tomonidan subsidiyalangan moliyalashtirish; ushbu yordamni taqdim etuvchi mamlakatdagi firmalardan tovarlar sotib olinishi sharti bilan xorijiy import qiluvchilarni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash; milliy EKA (eksportni kafolatlash agentliklari) ishtirokida moliyalashtirish; xalqaro faktoring va lizing⁴.

Bir guruh iqtisodchi olimlarning fikriga ko‘ra, hududlarning eksport salohiyati bu uning eksport bazasi bo‘lib, u hududning ichki eksport imkoniyatlari va tashqi bozorning iste‘mol imkoniyatlarini miqdoriy o‘lchashga yoki iqtisodiy tizimning jahon bozorlarida raqobatbardosh bo‘lgan tovarlar, texnologiyalar va xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyatiga asoslangan. resurslarni, ishlab chiqaruvchi kuchlarni, ilm-fan, xizmat ko‘rsatish va sotish infratuzilmasini, pul va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlanganligiga bog‘liqdir⁵.

R.Pritkovning takidlashicha, hududning eksport salohiyatini to‘laqonli oshirish uning tabiati, resursi, ishlab chiqarish, infratuzilmaviy va mehnat salohiyatiga bog‘liq⁶.

Haqiqatdan ham, hududning eksport salohiyati yuqorida qayd etilgan omillarga bog‘liq bo‘lib, ushbu omillardan samarali foydalanishgina raqobatbardosh mahsulotlarni jahon bozorlariga olib chiqish imkonini beradi. Ushbu element hududning eksport salohiyati tarkibida muhim ahamiyatga ega, chunki zamonaviy jahon bozori xaridor bozoridir, shuning uchun tovarlarni ishlab chiqarish va sotish masalalari nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham birinchi o‘rinda turadi.

A.Gavrilovning fikriga etibor beradigan bo‘lsak: “eksportni moliyalashtirishni takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: eksportni moliyalashtirish davlat va xususiy kapitalni o‘zida mujassam etgan tizimga asoslanishi lozimki, xalqaro moliya-kredit tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish; eksportyorlarni axborot va konsalting qo‘llab-quvvatlash institutini yaratish; eksport kreditlarini sug‘urtalash agentligini tashkil etish; eksportyorlarning transport xarajatlarini subsidiyalash”⁷.

Haqiqatdan ham, xususiy kapitalni kompaniyalar eksportini moliyalashtirish jarayoniga jalb etish, birinchidan, eksportni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish imkonini beradi; ikkinchidan, eksportni moliyalashtirish samaradorligini oshirishga xzmat qiladi.

Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, bir guruh iqtisodchi olimlar eksportni moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni davlatning mablag‘lari hisobidan bonifikatsiya qilishni eksportni moliyalashtirish amaliyotini

⁴ Шалдаева Л.И., Шутова С.В. Экспортное финансирование в мировой практике: формы, преимущества недостатки // Сельскохозяйственный журнал. – Ставрополь, 2014. – №7.

⁵ Малцев А.А. Внешнеэкономические отношения: компромисс интересов или “вотчина” территорий // Внешняя торговля. – 1998. – №7-9. – С. 38-41.; Борисюк Н.К. Развитие экспортного потенциала региона с селю его интеграции в мировое сообщество / Н.К. Борисюк, Р.М. Прытков // Взаимодействие реального и финансового секторов в трансформационной экономике. Материалы Международной научной конференции. – Оренбург: ИПК ГОУ ОГУ, 2008. – С. 525-528.

⁶ Прытков Р.М., Немирова Г.И. Формирование и развитие экспортного потенциала региона // Вестник ОГУ. – 2011. – №13 (132). – С. 388.

⁷ Гаврилов А.А. Совершенствование механизма финансирования экспорта в России // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. – Москва, 2011. – С. 39-48.

takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, deb hisoblaydi⁸.

I.Alimardonovning takidlashicha, “kichik biznes subyektlarini tashqi savdo faoliyatini kreditlash amaliyotini takomillashtirish uchun ularning hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasida amalga oshiriladigan to‘lovlarini tijorat banklarining muddatli va overdraft kreditlari hisobidan to‘lanishini joriy qilish kerak”⁹.

I.Alimardonovning ushbu taklifi rezident kompaniyalar eksportini moliyalashtirishni takomillashtirish jihatidan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa, kichik biznes subyektlari uchun banklar tomonidan ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarni muddatli va overdraft kreditlari hisobidan to‘lanishini joriy etilmaganligi bilan izohlanadi.

F.Axmedovning hisob-kitoblari shuni ko‘rsatadiki, “inflyatsiya darajasining 1 foizga oshishi tashqi savdoni moliyalashtirish hajmining 8,6 foizga kamayishiga olib keladi; Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasini 1 foizga oshishi esa tashqi savdoni moliyalashtirish darajasini 0,78 foizga oshiradi”¹⁰.

Haqiqatdan ham, inflyatsiya darajasining oshishi kreditlarning foiz stavkasini oshishiga olib keladi. Bu esa, tashqi savdoni moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlar hajmining kamayishiga olib keladi.

Eksportni moliyalashtirishning taraqqiy etgan mamlakatlarning amaliyotida keng qo‘llanilayotgan mexanizmlaridan biri – bu aralash moliyalashtirish shaklidir. Ushbu shakl rivojlanayotgan mamlakatlarning eksporterlariga taraqqiy etgan mamlakatlar banklari va hukumatlarining uzoq muddatli investitsion kreditlaridan foydalanish imkonini beradi. Aralash moliyalashtirish shaklida moliyalashtirish ikki elementdan iborat bo‘ladi: hukumat transhi (hukumat transhi kredit oluvchiga foizsiz beriladi); bank transhi.

Shedsariya tajribasi ko‘rsatadiki, Hukumat mamlakatning UBS bank kabi yetakchi mamlakatlari bilan kelishgan holda o‘z mamlakatining rezidentlari bo‘lgan eksporterlarni turli kreditlash dasturlari doirasida moliyalashtirib, ularning eksport tushumi hajmini oshirishga imkoniyat yaratmoqda¹¹.

“Eksportni moliyalashtirishning yana bir mexanizmi – bu xalqaro faktoringdan foydalanish hisoblanadi. I.Demchukning fikriga ko‘ra, xalqaro faktoringning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: “xalqaro faktoring yetkazib beruvchi mol yetkazib beruvchi xaridorlarning to‘lov intizomidan qat’i nazar, o‘zining moliyaviy oqimlarini rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘lib, bankdan pul mablag‘larini akseptlangan tovar hujjatlariga qarshi so‘zsiz kelib tushishiga ishonch hosil qiladi; xalqaro faktoring

⁸ Короткова С. Н., Ткач Ю. Б. Кредитование как одно из направлений финансирования сельского хозяйства в условиях членства в ВТО и санкций // Материалы международной научно-практической конференции “Аюшиевские чтения. Финансово-кредитная система: опыт, проблемы, инновации” и др. – Иркутск: НИС “Апробатсия”, 2016. – С. 124–130.; Шкарупа Е. А., Переходов П. П. Кредитование сельского хозяйства: особенности, проблемы, тенденции развития // Региональная экономика: теория и практика. – 2015. – № 44. – С. 52–56.; Scott J.A., Dinkelberg W.C., Dennis W.J. Credit, Banks and Small Business – the New Century – Washington: NFIB Research Foundation, 2003. – 96 p.

⁹ Alimardonov I.M. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. yet. diss. avtoref. – Tos‘hkent, 2018. – B. 29.

¹⁰ Axmedov F.X. O‘zbekistonda tijorat banklarining tas‘hqi savdogaxizmat ko‘rsatis‘hini takomillas‘htiris‘h. I.f.f.d. diss. avtoref. – B. 19.

¹¹ Бурденко Е.В., Быкасова Е.В. Механизм экспортного финансирования как инструмент государственной поддержки швейной промышленности//Финансы и кредит. – Москва, 2011. - №37. – С. 55-60.

kompaniyalarga quyidagi qulayliklarni yuzaga keltiradi: aylanma mablag‘larni tejash natijasida kompaniya eksport daromadlarining mumkin bo‘lgan o‘sishi tufayli qo‘shimcha foyda olish; bank kreditini olish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish (foizlar, ro‘yxatdan o‘tish xarajatlari, kredit muddati tugagandan so‘ng pul mablag‘larini favqulodda safarbar qilish xarajatlari yoki foizlarni to‘lash, shu jumladan pul mablag‘larini aylanmadan chiqib qolishi bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘qotishlar); ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, chunki eksporter o‘z tovarlarini chet elga mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan deyarli bir xil shartlarda sotadi, holbuki, mijozlar bilan biznes ularning hududida mahalliy sharoitlarga muvofiq amalga oshiriladi”¹².

Rossiyalik bir guruh iqtisodchi olimlarning xulosasiga ko‘ra, xalqaro faktoringni hujjatlashtirilgan akkreditivlar va bank kafolatlariga nisbatan afzalliklari quyidagilardan iborat:

- xalqaro faktoring hisob-kitoblarning akkreditiv shakliga nisbatan to‘lovlarni qabul qilish tartibini tezlashtirish va soddalashtirish imkonini beradi;
- xalqaro faktoringda eksport valyuta riskidan sug‘urta qilinadi;
- xalqaro faktoringda mijozlar uchun xizmatlarning keng majmualar uchun qulay bo‘lgan shakllarda taqdim etiladi;
- xalqaro faktoringda garov uchun majburiy talab yo‘q;
- xalqaro faktoringda, qoplangan hujjatlashtirilgan akkreditivlardan farqli o‘laroq, aylanmadan pul mablag‘larini olib qo‘yish zaruriyati mavjud emas;
- turli funksiyalar bitta moliyaviy agentda to‘planganligi uchun vaqt va moddiy xarajatlarni qisqartirish imkoniyati mavjud¹³.

Xalqaro forfeyting eksporterni kreditlash shakli bo‘lib, kredit eksporter sotgan tovarlari uchun olgan trattani bank tomonidan regress huquqsiz sotib olish yo‘li bilan beriladi. Ushbu moliyalashtirish shaklida siyosiy risk, kredit riski, valyuta riski hisobga olinadi.

Xalqaro forfeytingda moliyalashtirishning nisbatan arzon ekanligi forfeytingning riskni bozorning boshqa ishtirokchilari bilan o‘zaro taqsimlashi bilan izohlanadi: forfeyter ushbu majburiyatni to‘liq yoki qisman sotishi mumkin (shuni aytish joizki, mamlakat riski nafaqat moliyalashtirish qiymatiga, balki ushbu majburiyatlarni ikkilamchi bozorda talab qilinish ehtimoliga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro forfeyting operatsiyalarida tijorat veksellaridan tashqari hujjatlashtirilgan akkreditivlar va debitorlik qarzdorlik ham jalb qilinishi mumkin. Biroq, ular keng tarqalgan emas. Buning sababi shundaki, ular xalqaro forfeyting bitimining shartlarini muhokama qilishda jiddiy murakkabliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu murakkabliklarning yuzaga kelishi forfeyting biznesining ikki muhim xususiyati bilan izohlanadi: bitimni kelishish tezligi va kredit hujjatlari tarkibining soddaligi.

Xalqaro forfeytingda murakkabliklarni yuzaga kelishining yana bir sababi – bu bitimning barcha shartlari batafsil, ikir-chikirigacha bayon qilinishi tufayli huquqiy va texnik murakkabliklar yuzaga keladi. Trattalar yoki oddiy veksellardan


¹² Демчук И. Н. Факторинг как банковская услуга и метод повышения эффективности деятельности предприятий – клиентов банка. / И. Н. Демчук // Банковское дело. 2007. № 4. С. 30-43.

¹³ Лаврусхин О.И., Афанасева С.Л., Корниенко С.Л. Банковское дело: современная система кредитования/ О.И. Лаврушин, О.Н. Афанасева, С.Л. Корниенко. М.: КноРус, 2011. 264 с.

foydalanilganda qoplanadigan transh alohida hujjat bilan tasdiqlanishi mumkin, keyinchalik u forfeytoring xohishiga ko‘ra, boshqap subyekt foydasiga yon berilishi yoki ikkilamchi bozorda individual tarzda muomalada bo‘lishi mumkin. Debitorlik qarzlari yoki akkreditivlardan foydalanilganda, barcha qoplash sanalari yagona hujjatda ko‘rsatiladi va, odatda, qarzdorning maxsus ruxsatisiz o‘tkazilishi mumkin emas va shuning uchun yon berish predmetida qat’iy belgilangan bo‘ladi.

Shuningdek, taraqqiy etgan mamlakatlarning amaliyotida eksportni moliyalashtirishning eksportoldi moliyalashtirishni kreditlash, eksportyorni kreditlash kabi mexanizmlaridan ham keng foydalanilmoqda.

Eksport oldi moliyalashtirishni kreditlashda eksportyorning ishlab chiqarish xarajatlari (uskuna, xom-ashyo sotib olish, ma‘muriy va boshqa xarajatlar) kredit hisobidan moliyalashtiriladi.



1-rasm. Eksportyor kompaniyani kreditlash tartibi.¹⁴

Eksportyorni kreditlashda bevosita eksport qilinayotgan tovarlarning summasi bankning krediti hisobidan to‘lab beriladi (1-rasm).

Bu yerda,

1 – eksport shartnomasini imzolash;

2 – importyor o‘zining bankiga kredit so‘rab murojaat qiladi;

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

- 3 – importyor va bank o‘rtasida kredit shartnomasi tuziladi;
- 4 – eksportyor tovarlarni importyorga jo‘natadi;
- 5 – eksportyor tovar hujjatlarini o‘zining bankiga uzatadi;
- 6 – bank hujjatlarni qabul qilib oladi;
- 7 – eksportyorning banki hujjatlarni importyorning bankiga to‘lov uchun jo‘natadi;
- 8 – importyorning banki tovarlar summasini kredit hisobidan to‘lab beradi;
- 9 – importyorning banki eksportyorning bankini 8-operatsiya bajarilganligi to‘g‘risida xabardor qiladi.
- 10 – eksportyorning banki eksport tushumini eksportyorning joriy valyuta hisobraqamiga kirim qiladi.

Eksportni moliyalashtirish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasining tahlili ko‘rsatdiki:

- Polsha, Germaniya, Shedsariya, AQSh, va Yaponiyada kompaniyalarning eksportini moliyalashtirish amaliyotini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda quyidagi instrumentlardan keng ko‘lamda foydalaniladi: yangi tovarlarni jahon bozorlariga olib chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni moliyalashtirish; eksport qilinayotgan tovarlarning sifatini yaxshilash xarajatlariga nisbatan soliq imtiyozlari qo‘llash; eksport qilinadigan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirish; eksportni moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlarga davlat kafolatini berish;¹⁵.

- Yaponiyada 1960-yildan boshlab eksport qilinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy imtiyozlar tizimi qo‘llana boshladi. Bundan ko‘zlangan maqsad – eksportyorlarning jahon bozorlarida raqobat qila oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish edi. Xuddi shunday choralar qator Yevropa davlatlarida, jumladan, Polsha, Germaniya, Shedsariya, Chexiya, Italiya, Fransiya va Slovakiyada ham qo‘llanildi;¹⁶.

- Shedsariyada kompaniyalar eksportini mamlakatning yetakchi banki bo‘lgan UBS bank va SERV eksport-kreditlash agentligi orqali kreditlash yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Eksportni kreditlash shartlari quyidagilar: kredit 5 yildan 10 yilgacha bo‘lgan muddatga beriladi; kredit summasi 2 mln. shveysar frankidak 2 mlrd. shveysar frankigacha bo‘lgan miqdorni tashkil etadi; oldindan to‘lash stavkasi 15 foizni tashkil etadi va har 6 oyda amalga oshiriladi; to‘lovlarni kechiktirish 2 yilgacha mumkin; qoplash koeffitsiyenti 0,95 ni tashkil etadi¹⁷.

Yaponiyada ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlanishi savdo operatsiyalarini rivojlantirish va ishlab chiqaruvchilarning eksport faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hisobiga ta‘minlandi. 1970-yilga kelib Yaponiya iqtisodiy o‘sish sur‘atlari bo‘yicha dunyo yetakchilaridan biriga aylandi. Yaponiyada iqtisodiyoti rivojlanishining ilk bosqichlarida tovarlarni jahon bozorlariga olib chiqishda Savdo uylari muhim rol o‘ynadi. Keyinchalik esa, iqtisodiy diplomatiya

¹⁵ Жаринов А.А. Основные принципы функционирования организаций по поддержке экспорта // Российский внешнеэкономический вестник. №11, 2009. С. 16–23.

¹⁶ Бродко И. Стимулирование экспорта//Наука и инноватсии. №5, 2009. С. 63–65.

¹⁷ Сплетуков Ю.А. Страхование экспортных кредитов и повышение конкурентоспособности отечественных товаропроизводителей // Финансы, 2015. - №2. - С. 42–47.

yapon tovarlarini jahon bozorlariga olib chiqishning asosiy vositasiga¹⁸.

1-jadval

AQSHning Bank of America bankida brutto kreditlar miqdori va eksport kreditlarining brutto kreditlar hajmidagi ulushi.¹⁹

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Brutto kreditlarning miqdori, mlrd. AQSH dollari	909	966	1033	1053	1095
Eksportni moliyalashtirish uchun berilgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi ulushi, %	13,7	14,2	16,4	17,1	23,2

- AQSHning Bank of America bankida brutto kreditlarning miqdori 2020-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Bank of America bankida eksportni moliyalashtirish uchun berilgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi ulushi 2020-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, kompaniyalar eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi (1-jadval).

2-jadval

Halyk Bank (Qozog'iston) va kompaniyalar o'rtasida eksport va import operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan valyuta operatsiyalarining tarkibi, foizda.²⁰

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Spot operatsiyalari	14,2	8,7	6,7	9,0	4,4
Forvard operatsiyalari	0,1	3,9	0,9	0,5	17,1
Svop operatsiyalari	85,7	87,4	92,4	90,5	78,5
Valyuta operatsiyalari - jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

2-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki:

- Halyk Bank va kompaniyalar o'rtasida eksport va import operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan valyuta operatsiyalarining tarkibida spot operatsiyalarining ulushi 2020-2022-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

- Halyk Bank va kompaniyalar o'rtasida eksport va import operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan valyuta operatsiyalarining tarkibida forvard operatsiyalarining ulushi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan. Bu esa, kompaniyalar eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;

- Halyk Bank va kompaniyalar o'rtasida eksport va import operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan valyuta operatsiyalarining tarkibida svop operatsiyalarining ulushi

¹⁸ Хасбулатов Р.И. 2019. Экономическая дипломатия. Ч. 1–2. Москва: Юрайт. 265 с.

¹⁹ Jadval muallif tomonidan Bank of America bankining yillik hisobotlari (bankofamerica.com) ma'lumotlari asosida hisoblangan.

²⁰ Jadval muallif tomonidan Halyk Bankning yillik hisobotlarining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2020-2024-yillarda juda yuqori bo‘lgan.

3-jadval

Bank of Tokyo-Mitsubishi banki (Yaponiya) tomonidan kompaniyalar eksporti moliyalashtirish uchun berilgan kreditlarning miqdori va o‘rtacha yillik foiz stavkasi.²¹

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Eksportni moliyalashtirish kreditlari, mlrd. Iyen	51550	48852	46772	42189	47353
Eksport kreditlarining o‘rtacha yillik foiz stavkasi, %	3,62	2,71	2,42	3,91	6,18

- Bank of Tokyo-Mitsubishi banki tomonidan kompaniyalarning eksportini moliyalashtirish uchun berilgan kreditlarning miqdori 2020-2023-yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan;

- Bank of Tokyo-Mitsubishi banki tomonidan kompaniyalarning eksportini moliyalashtirish uchun berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi 2020-2022-yillar pasayish tendensiyasiga, 2022-2024-yillarda esa, pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan (3-jadval)

Dissertatsiyaning “O‘zbekiston Ryepublikasida tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirishning zamonaviy holati” deb nomlangan ikkinchi bobida tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlil qilingan va mavjud tendensiyalar aniqlangan hamda eksportni moliyalashtirish amaliyotiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarning ta’sir darajalariga baho berilgan.

4-jadval

O‘zbekiston Respublikasida eksport, import miqdori va tashqi savdo balansining salbiy saldosi, mlrd. AQSH dollari.²²

Ko‘rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Eksport	15,1	16,6	19,3	24,4	26,9
Import	21,2	25,5	30,7	38,1	38,9
Salbiy saldo	6,1	8,9	11,4	13,7	12,0

4-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, respublikamizda eksport va importning miqdorlari 2020-2024 yillarda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

respublikamizda tashqi savdoning salbiy saldosing miqdori 2020-2024 yillarda sezilarli darajada katta bo‘lgan. Buning ustiga, salbiy saldoning miqdori 2024 yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur’atda o‘sgan (4-jadval).

Tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri – bu tijorat banklarining kreditlaridir.

²¹ Jadval muallif tomonidan Bank of Tokyo-Mitsubishi bankining yillik hisobotlarining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

²² Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining milliy va xorijiy valyutalardagi kreditlarining o‘rtacha yillik foiz stavkalari, foizda.²³

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Milliy valyutadagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi	22,3	20,8	21,9	23,1	23,8
Xorijiy valyutalardagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi	6,9	6,7	6,7	9,2	9,8

5-jadvaldagi ma’lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi 2021-2024 yillarda oshish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, mazkur davrda tijorat banklarining milliy valyutadagi muddatli depozitlarining o‘rtacha yillik foiz stavkasini oshish tendensiyasiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi.

mamlakat tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo‘lgan. bu esa, jahon ssuda kapitallari bozorida xalqaro kreditlarning bahosini 2021-2024-yillarda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi (5-jadval).


Xorijiy kredit liniyalari orqali jalb qilingan xalqaro kreditlar respublikamiz tijorat banklarining kredit operatsiyalarini moliyalashtirishda muhim o‘rin tutadi. Aynan, jalb qilingan xalqaro kreditlar hisobidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga olib kirilayotgan yangi texnika va texnologiyalar summasini to‘lab berilayotganligi tijorat banklarining milliy iqtisodiyotni rivojlanishini ta’minlashdagi rolini oshirish nuqtayi-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar ko‘rsatdiki, respublikamiz tijorat banklarining passivlari hajmida depozitlar va xorijiy banklardan jalb qilingan kreditlar nisbatan yuqori salmoqni egallaydi.

- 2020-2024-yillarda Asia Alliance Bank passivlarining umumiy hajmida majburiyatlar nisbatan yuqori salmoqni egallagan;

- 2022-2024-yillarda Asia Alliance Bank passivlarining umumiy hajmida majburiyatlarning ulushi pasayish tendensiyasiga, regulyativ kapitalning ulushi esa, oshish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

²³ Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.



2-rasm. Asia Alliance Bank passivlarining umumiy hajmida majburiyatlar va regulyativ kapitalning ulushi, foizda.²⁴


Tahlil qilinayotgan davrda bank moliyaviy resurslari tarkibida majburiyatlarning ulushi yuqoriligicha saqlanib qolgan bo‘lsa-da, 2024-yilga kelib kapitalning ulushi sezilarli darajada oshib, 15,4 foizni tashkil etdi, bu esa bankning moliyaviy barqarorligi va o‘z mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik darajasi yaxshilanganidan dalolat beradi.

- Asia Alliance Bank tomonidan mijozlarning import to‘lovlari bo‘yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar taqdim etuvchiga tratalarni to‘lagan holdagi import bilan bog‘liq to‘lanmagan akkreditivlar va qoplangan akkreditivlardan iborat;

- Asia Alliance Bank tomonidan ochilgan taqdim etuvchiga tratalarni to‘lagan holdagi import bilan bog‘liq to‘lanmagan akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 2021-2024-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan va 2024-yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur‘atda pasayganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin;

- Asia Alliance Bank tomonidan ochilgan qoplangan akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 2021-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo‘lgan va 2024-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur‘atda oshgan. Bu esa, kompaniyalar eksporti va importini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi-nazaridan salbiy holat hisoblanadi (2-rasm).

²⁴ Rasm muallif tomonidan ASIA ALLIANCE BANKning moliyaviy hisobotlarining ma‘lumotlari asosida tuzilgan.



3-rasm. Asia Alliance Bank tomonidan mijozlarning eksport va import operatsiyalari bo'yicha ochilgan taqdim etuvchiga tratalarni to'lagan holdagi akkreditivlar va qoplangan akkreditivlarning jami hujjatlashtirilgan akkreditivlar hajmidagi ulushi, foizda.²⁵

Tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirishning muhim manbalari bo'lib, xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalar korxonalar eksport salohiyatini kengaytirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb qiladi. Ular ishlab chiqarish imkoniyatlari, texnologiya va bozor integratsiyasini oshiradi, bu esa eksport qilinadigan mahsulotlar raqobatbardoshligini yaxshilaydi.

Xalqaro moliya institutlari, banklar va eksport kredit agentliklari korxonalarga eksport uchun mablag' ajratadi. Bu kreditlar ko'pincha uzoq muddatli bo'lib, korxonalarga eksportoldi investitsiyalar, aylanma mablag'lar yoki investitsiya xarajatlarini qoplashda yordam beradi (3-rasm).

6-jadval

O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning miqdori va darajasi.²⁶

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning miqdori, mln. AQSH dollari	3117,8	4276,0	2631,1	3182,7	2836,4
Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan darajasi	35,8	32,4	35,8	40,9	33,9

²⁵ Rasm muallif tomonidan ASIA ALLIANCE BANKning moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

²⁶ Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.


6-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkin, respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan darajasi 2021-2023-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa, mazkur davrda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini xorijiy investitsiyalarni o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi va milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanish sur'atini 2023-yilda yuqori bo'lganligi (9,9 %) bilan izohlanadi.

Shunisi ahamiyatliki, respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalarning umumiy hajmida portfelli xorijiy investitsiyalarning salmog'i 2020 va 2021-yillarda nisbatan yuqori bo'lgan. Bu esa, quyidagilar bilan izohlanadi:

2020-yilda tijorat banklari tomonidan qiymati 600 mln. dollarlik yangi qimmatli qog'ozlar xalqaro fond birjalarida sotildi;

